SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 12/1
2023

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I12.1Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 12/1 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Елмуратов Икматулла Гайбуллаевич*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ БИРИНЧИ ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ТАРИХИ (1931-1936 ЙИЛЛАР) ..... 12-18

*Qitaybekov Azizbek Kenesbek o‘g‘li*
QORAQALPOG‘ISTONDA HAVO TRANSPORTINING SHAKLLANISHIDA “DOBROLET” AKSIYADORLIK JAMIYATINING O‘RNI ..... 19-23

*Nawrizbaeva Nurjamal Qudaybergenovna*
QORAQALPOQLARNING GILAMCHILIGI BILAN BOG’LIQ BA’ZI MAROSIMLAR ..... 24-29

*Сайдуллаев Фаррух Умедулло ўғли*
МУҲАММАД ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ЭТНОЛОГИК ВА ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРИ ..... 30-35

*Berdiqulov Mirolim Tugalvoyevich*
TO‘DA-1 NEOLIT MAKONINING O’ZBEKISTON TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O’RGANISHDAGI O’RNI ..... 36-40

*Olimjonova Gulida Olimjon qizi*
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATI ..... 41-47

*O‘ng‘alov Lazizbek Amiriddin o‘g‘li*
NUROTA TOG‘ TIZMASINING TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O‘RGANILISH TARIXI ..... 48-53

*Rahmonov Faxriddin Shoymardonovich*
MILLIY DEHQONCHILIK MADANIYATINI ETNO-TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI (JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA) ..... 54-58

*Tilavboyev Muhammad*
JIZZAX VOHASIDA OT BILAN BOG‘LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR ..... 59-63

*To‘xtaboyev Xurmatullo Shomirza o’g’li*
O‘ZBEKISTON ILM-FANI RIVOJIDA FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETINING O‘RNI (MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA) ..... 64-68

*Рахматиллаев Хасанбой*
МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ЭТНИК ТАРИХИНИ ЁРИТИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛИ МАСАЛАЛАР ВА УСУЛЛАРГА ДОИР ..... 69-74

*Qurbonova Manzila Boqiyevna*
BUXORO VOHASI MILLIY SHIRINLIKLARI VA ICHIMLIKLARI ..... 75-80

*Ravshanova Gulora*
QASHQADARYO VOHASIDA MUNTAZAM QUROLLI HARAKATLAR TA’MINOTI (XX-asrning 20-yillarida) ..... 81-85

*Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич*
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ҚОРАҚАЛПОЛҒИСТОН АССР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ..... 86-90

*Baxronov Abdullo Haydar oʻgli*
OʻZBEKISTONDA TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI OʻRGANISHDA XALQARO EKSPEDISIYALARINING OʻRNI ........ 91-95

*Maxmatqulov Jasur Isroil oʻg'li*
GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MAVZUSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ........ 96-101

*Esanova Nilufar*
OʻZBEKISTON–TURKIYA HAMKORLIGI VA UNING NATIJASI (TOʻQIMACHILIK SANOATI MISOLIDA) ........ 102-106

*Норбоев Сарвар Қахрамон ўғли*
АФРОСИЁБДАГИ СЎҒД МУДОФАА ДЕВОРИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (XX АСРНИНГ 50–80-ЙИЛЛАРИ) ........ 107-111

*Эсонов Зиёдбек Юлдашевич*
ФАРҒОНА ВОДИЙСИ АҲОЛИСИ ТЎҚИМАЧИЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ АНЪАНАЛАРИ ........ 112-117

*Tishabayeva Irodaxon Rasulovna*
1960-1970 YILLARDA OʻZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI ........ 118-124

*Toʻxtamisheva Fotima Musurmonovna*
MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASI KASHTADOʻZLIGIDA OʻZGARISHLAR ........ 125-132

*Sattorov Nurbek*
SHIMOLIY BAQTRIYA VA ZARAFSHON MINTAQALARIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MADANIYATI SOHIBLARI ETNOMADANIY ALOQALARINING OʻZBEK XALQI ETNOGENEZI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI ........ 133-138

*Hazratov Nurali Burxon ugʻli*
QADIMGI KESH VILOYATI HUDUDIDAGI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARINING OʻRGANILISH TARIXIDAN ........ 139-144

*Mamatqulov Bekzod Sherozovich*
OʻZBEKISTONDA GAZ-OLTINGUGURT SANOATINING YUZAGA KELISHI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) ........ 145-149

*Berdiyev Jamshid*
VOHA JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLAR VA PATRONIMLARNING TUTGAN OʻRNI ........ 150-155

*Djurakulov Sherzod Davronovich*
SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDI TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISHI TARIXI ........ 156-161

*Қурбанова Дилрабо Шерипбоевна*
ПАРЛАМЕНТ ТАРИХИ ВА ТАРИХШУНОСЛИГИ ........ 162-172

*Зухриддин Болтаевич Жунаев*
ХОРАЗМДА РЕСПУБЛИКА ТУЗУМИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР (1920-1924 йиллар) ........ 173-181

*Mamadiev Boxodir Bobojonivich*
QASHQADARYO MUZEYIDAGI NODIR OSTODON ........ 182-186

*Norqo‘chqarov Xushvaqt Eshnazarovich*
AFG‘ONISTONDA O‘ZBEK TILINING QONUNIY ASOSLANISHI, O‘ZBEKLAR IJTIMOIY-MADANIY HAYOTIDAGI O‘RNI (XX ASR – XXI ASR BOSHLARI) ........ 187-197

*Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич*
ТОШКЕНТ ВОҲАСИ СЎНГГИ БРОНЗА ДАВРИ ТАРИХИ ТИЗИМИДА: ДАФН УДУМИ ВА МИГРАЦИЯ МАСАЛАЛАРИ ........ 198-203

*Азаматова Гулмира Байирбековна*
ОДАМ САВДОСИГА УЧРАГАН МИГРАНТ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР ........ 204-208

*Tishabayeva Irodaxon Rasulovna*
1960-1970 YILLARDA O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI ........ 209-215

**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Ostonokulov Azamat Abdukarimovich, Inoyatov Mardonbek Mo‘min o‘g’li*
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ........ 216-226

*Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich*
O‘ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV TASHKILIY- IQTISODIY MEXANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI ........ 227-232

*Отабеков Отажон Ғайрат ўғли*
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ОПТИМАЛ СОЛИҚ ЮКИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ МАСАЛАЛАРИ ........ 233-243

*Шакирова Фароғат Болтаевна*
ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАҲОЛАШ ИНДИКАТОРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ........ 244-255

*Мамбетназаров Бахыт Бисенбаевич*
ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ........ 256-263

*Jumaniyazova Ro‘za Quvondiq qizi*
TURIZM INFRATUZILMASI TUSHUNCHASI VA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI ........ 264-269

*Matniyozov Murodjon Rajabbayevich*
DESTINATSIYA IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA TURISTLARNING SODIQLIGI VA QONIQISHINING AHAMIYATI ........ 270-278

*Хамидова Зарифа Урол қизи*
ДАВЛАТ СЕКТОРИДА ИЧКИ АУДИТ ВА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ........ 279-291

*Toshaliyeva Saodat Toxirovna*
KICHIK TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI .... 292-296

*Худойназаров Фахритдин Хаитович*
ИБН ХАЛДУННИНГ ИҚТИСОДИЁТГА ТАВСИЯЛАРИ ........ 297-304

*Nurullayev Hoshimjon Hamidovich*
GASTRANOMIYANING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI ........ 305-313

*Кадырова Шарофат Амоновна*
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ .... 314-323

*Бегматова Зиёда Захиджановна*
ДАВЛАТ ИНТЕРАКТИВ ХИЗМАТЛАРИ ТИЗИМИ АСОСИДА КАДРЛАР БАНДЛИГИНИ ВА УЛАРГА ТАЛАБНИ БАҲОЛАШ ........ 324-332

*Shafkarov Bakhrom Khudoyberdievich*
TERRITORIAL FEATURES AND THEIR EFFECTIVE USE IN THE CULTIVATION OF VITICULTURE PRODUCTS ........ 333-340

*Masharipova Fazilat Axmedovna*
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI ........ 341-348

*Мусинов Дилшод Султанович*
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНИНГИЖТИМОИЙ ВА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛИ СИФАТИДА ........ 349-359

*Шакирова Юлдуз Сайдалиевна*
ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ ДОРОЖНОЙ КАРТЫ АКТИВИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ ........ 360-368

*Абдивохидов Мамуржон Авазхон ўғли*
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ МАЗМУНИ, ТАВСИФИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ........ 369-380

*To'xtasinova Mихаyyo Mirzasultonovna*
DAVLATNING INNOVATSION TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALASIGA ........ 381-388

*Курбанова Рахима Джамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна*
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 389-403

*Набиева Нилуфар Муратовна*
ОСОБЕННОСТИ КОМПЛЕКСА МАРКЕТИНГОВОГО ПРОДВИЖЕНИЯ КОМПАНИИ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ ........ 404-416

*Safarov Radjabboy Eshmuxammadovich*
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA INDIVIDUAL DAROMADGA SOLIQLAR MEXANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI ........ 417-428

*Sharipova Zulayho*
SANOAT TARMOQLARI KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ........ 429-434

*Шарипов Акбар Илхамович*
ЧАКАНА САВДО КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РАҚАМЛИ МАРКЕТИНГНИ РОЛИ ........ 435-440

*Хаджаев Хабибулла Сагдуллаевич*
ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ АНТИМОНОПОЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ . 441-447

*Xamzayeva Dilfuza Samarovna*
SURXANDARYO VILOYATIDA TURISTIK MAHSULOTLARNI BAHOLASH VA SAMARALI RIVOJLATIRISH IMKONIYATLARI ........ 448-452

*Усманова Насиба Акбаржоновна*
ПУТИ РАЗВИТИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УСЛУГ ........ 453-459

*Исхакова Сарвар Аюбовна*
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЗАНЯТОСТЬ И КВАЛИФИКАЦИЮ ПЕРСОНАЛА В СФЕРЕ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 460-467

*Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich*
INNOVATSION TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHDA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA UNI TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI ........ 468-479

*To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi*
OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHDAGI INNOVATSIYALAR. CHAT GPT YOHUD SUN'IY INTELLEKT ........ 480-485

*Абдураҳимова Саида Аҳмаджановна, Адилова Гўзал Абзаловна*
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ........ 486-494

*Maxsudov Sherzod Solijonovich*
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI ........ 495-500

*Tadjibekova Dilnoza Bakhtiyarovna*
ENHANCING FINANCIAL RESOURCE FORMATION IN BUSINESSES ........ 501-506

*Radjabova Malika Ziyodullayevna*
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI XUSUSIDA ........ 507-512

***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Asraqulova Adiba Nabiyevna*
ZAMONAVIY DAVRDA IQTISODGA FALSAFIY QARASHLAR ....................513-520

*Жўраев Аҳмад Муҳаммадиевич*
ТИНЧЛИКПАРВАРЛИК ҒОЯЛАРИНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ ....................521-530

*Гуламова Мавжуда Ташпулатовна*
АХМАД ЗИЁУДДИН АЛ-КУМУШХОНАВИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОН ҒОЯЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ ....................531-538

*Abduxolikova Nasiba Alijonovna*
YOSHLARNING ONLAYN TA'LIM JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI IJOBIY SALBIY OMILLAR ....................539-544

*Yazdonov Zikirillo Shukurilloyevich*
QALANDARIYLIK VA UNING INSON, JAMIYAT TIZIMIDAGI O'RNI ....................545-552

*Sharipova Barno Salimovna*
BIOETIK MADANIYATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY IMIJI ....................553-558

*Xalikulova Umida Rustamovna*
AXBOROT MUHITINING OLIY TA'LIMGA TA'SIRI: KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV OMILLAR ....................559-564

*Abbasova Maftuna Subxonovna, Temirova Xurshida*
OILA VA NIKOH MA'NAVIYATI, OILANI MUSTAHKAMLASH OMILLARI ....................565-571

*Tog'ayev Nodirjon Ergashevich*
AJDODLARIMIZ BOY ILMIY MEROSINING O'ZBEKISTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT QURISH HAMDA YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI ....................572-576

*Kipchoqov Xomidjon Gulomovich*
JAVOBGARLIK PRINSIPINI SHAKLLANTIRISH AXLOQSHUNOSLIKNING ASOSIY MASALASI SIFATIDA ....................577-581

*Raximova Rayxon Abdurasulovna*
ZAMONAVIY OILADA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMONING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI ....................582-586

*Агзамова Нилюфар Шухратовна*
"АДАБ АЛЬ-ТАБИБ" КАК ИСТОЧНИК НАЦИОНАЛЬНОЙ БИОЭТИКИ ....................587-591

*Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich*
INTELLEKTUAL MADANIYAT YOSHLARNING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM MEZONI SIFATIDA ....................592-596

*Nabiyev Mansur Jamxur o'g'li*
DEMOKRATIK JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY G'OYALAR EVOLYUTSIYASI VA MODERNIZATSIYASI ....................597-603

*Kenjayeva Dilrabo Romanovna, Xaydarova Larisa Sunnatovna*
GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MADANIYAT SOHASIDAGI O‘ZGARISHLARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI ........ 604-609

*Abduraximova Tursunoy Abduvoxid qizi*
O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY MOHIYATI ........ 610-615

*Tagayev Ganisher Xasanovich*
YOSHLAR ETNOESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA BADIIY-ESTETIK OMILLARNING O‘RNI ........ 616-625

*Шоназаров Жамшид Шуҳратович*
БЕҲБУДИЙ ВА УНИНГ ДАВЛАТЧИЛИК ҒОЯСИ ........ 626-630

*Ҳамраев Сирож Абруевич*
ЖАМИЯТ ЯНГИЛАНИШИ ВА ТАДБИРКОР МАЪНАВИЯТИ ........ 631-637

*Nabiyev Bekzod Muxammadumarovich*
MAFKURAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TARG‘IBOT TEXNOLOGIYALARI: O‘ZBEKISTON VA XORIJ TAJRIBASI ........ 638-642

*Hashimova Gulsina Ismoyilovna*
HARBIY IJTIMOIY ISH VA HARBIY MADANIYATNING HARBIY XIZMATCHILAR FAROVONLIGINI TA’MINLASHDAGI ROLI ........ 643-648

*Karimova Gulnoza Yigitaliyevna*
AXLOQIY MADANIYAT TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURIYATI ........ 649-655

*Sharipova Kamola Usmonjonovna*
YANGI O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA’MINLASH BO’YICHA ILG‘OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASINI MILLIY STRATEGIYAGA TRANSFORMASIYALASH ISTIQBOLLARI ........ 656-661

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№12/1(3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*07.00.00- Иқтисодиёт фанлари*

**Sattorov Nurbek**
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti oʻqituvchisi

# SHIMOLIY BAQTRIYA VA ZARAFSHON MINTAQALARIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MADANIYATI SOHIBLARI ETNOMADANIY ALOQALARINING OʻZBEK XALQI ETNOGENEZI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada diyorimizga dehqonchilik xoʻjaliklarining kirib kelishi va yoyilishi, dasht koʻchmanchilarining shimoli-sharqdan Movaraunnahrning markaziy va janubga qarab kirib kelishi va oʻtroq qabilalar bilan aralashish jarayonlari, Sarazm va Sopollitepa dehqonchilik maskanlari haqida ma’lumotlar beriladi.
**Kalit so’zlar:** Anov-Nomoz, “Sarazm”, “Chust”, “Xalifa”, “Sazagʻon”, “Jom”, “Sopollitepa”, Qadimgi Baqtriya, Margʻiyona.

---

**Sattorov Nurbek,**
Teacher, Tashkent State Pedagogical
University named after Nizami

# THE ROLE OF AGRICULTURAL AND LIVESTOCK CULTURE OWNERS IN THE FORMATION OF ETHNOMADANIC TIES IN THE REGIONS OF NORTHERN BACTRIA AND ZARAFSHAN IN THE ETHNOGENESIS OF THE UZBEK PEOPLE

**Abstract.** This article provides information about the introduction and spread of farming farms in our land, the introduction of steppe nomads from the northeast towards the Central and south of Movaraunnahr, and the processes of mixing with Grazer tribes, sarazm and Sopollitepa farming settlements.
**Keywords:** Anov-Namaz, "Sarazm", "Chust", "Khalifa", "Sazaghan", "Jam", "Sopollitepa", Ancient Bactria, Margiana.

---

**Сатторов Нурбек,**
Преподаватель, Ташкентский государственный
педагогический университет имени Низами

# РОЛЬ ЭТНОКУЛЬТУРНЫХ СВЯЗЕЙ НОСИТЕЛЕЙ ЗЕМЛЕДЕЛЬЧЕСКОЙ И СКОТОВОДЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В СЕВЕРНОЙ БАКТРИИ И ЗАРАФШАНЕ В ФОРМИРОВАНИИ ЭТНОГЕНЕЗА УЗБЕКСКОГО НАРОДА

**Аннотация.** В этой статье представлена информация о проникновении и распространении фермерских хозяйств в нашу страну, о процессах проникновения степных кочевников с северо-востока в Центральную и южную части Мавараунnаха и смешения с оседлыми племенами, а также о сельскохозяйственных поселениях Саразм и Сополлитепа.
**Ключевые слова:** Анов-Намаз, «Саразм», «Чуст», «Халифа», «Сазаган», «Джом», «Сополлитепа», Древняя Бактрия, Маргиана.

---

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I12.1Y2023N22

**Kirish.** Eng qadimgi davrlardan beri ikki azim daryo boʻlmish Amu va Sirdaryo oraligʻi, unga tutash hududlarda oʻzbek xalqi hayot kechirib kelishmoqda. Oʻtgan asr boshlaridan yurtimiz hududida olib borilgan tadqiqotlar natijasida topilgan moddiy va yozma manbalarni oʻrganilishi natijasida Oʻzbekiston insoniyatning qadimgi beshiklaridan biri ekanligi isbotlandi. Tadqiqotlar natijalaridan yurtimiz hududida yashagan qadimgi ajdodlarimiz ikki tilda soʻzlashuvchi, ikki xoʻjalik sohiblari boʻlgan turkiy chorvadorlar va oʻtroq eroniy tillarning shimoliy-sharqiy lahjalarida soʻzlashuvchi qabilalar boʻlganligi aniqlandi. Har ikkala xoʻjalik bilan shugʻullanuvchi qabilalarning asrlar davomida oʻzaro aloqalari ularning oʻzaro aralashib, etnik jihatdan qorishib ketishi natijasida bugungi kundagi oʻzbek va tojik xalqlarining paydo boʻlishiga olib keladi. Ajdodlarimizning azaliy asosiy mashgʻulotlari boʻlgan dehqonchilik va chorvachilikning bobolarimiz tomonidan oʻzlashtirilish tarixi ham juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Tarixiylik nuqtai nazaridan bu sohalarning paydo boʻlishiga e'tabor qaratadigan boʻlsak, yurtimiz hududida dehqonchilik madaniyatining paydo boʻlishi qoʻshni Turkmaniston hududi orqali kirib kelgan qadimgi xalqlar bilan bogʻliqdir. Ularning ikki daryo oraligʻidagi unumdor va qulay dehqonchilik hududlariga kelib joylashib, keng dalalarda mehnat qilishlari natijasida eneolit davrida iqtisodiy-xoʻjalik sohasidagi yuksalishlar ijtimoiy tabaqalanishga yuzaga kelishiga olib keladi. Naijada bu hududdlarda ham qadimgi sharq sivilizatsiyasining yangidan-yangi mahalliy markazlari paydo boʻla boshlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Dehqonchilik madaniy-xoʻjalik an'analari bizning hududimizga Joytun madaniyati an'analari asosida tarkib topgan Anov-Nomozga madaniyati dehqon qabilalari orqali bronza davriga kelib yurtimiz va unga tutash hududlarga kirib keladi. Aynan shu kezlarda Oʻrta Osiyoning markaziy va shimoliy qismlarida ibtidoiy jamoalarning xoʻjalik hayotida tub oʻzgarishar yuz bera boshlaydi, ya'ni Koʻk maysazorliklar ta'sirida Zarafshon daryosining yuqori oqimida Sarazm dehqonchilik maskani paydo boʻladi. “Sarazm” soʻgʻdshunos olim V.A.Livshisning fikriga koʻra, “sari-zamin” ya'ni erning boshlanishi, aniqrogʻi Zarafshon vodiysining boshlanishi ma'nosini anglatadi[1]. Akademik A.Asqarovning fikricha, qadimgi sarazmliklar bu joyga Janubiy Turkmanistonning qadimgi Geoksyur vohasidan ikki maqsadni koʻzlab kelib oʻrnashganlar: birinchisi dehqonchilik xoʻjaligi uchun qulay ekin maydonlarini izlab topish boʻlsa, ikkinchisi, rangli metall-ma'dan konlariga ega boʻlish uchun kelishgan[2].

Sarazm yodgorligining buzilib ketgan eng yuqori qatlamlariga tegishli matreallariga e'tibor beradigan boʻlsak, bu joyda geoksyurdan kelgan sarazmliklarning faoliyati eneolitning rivojlangan bosqichidan to rivojlangan va soʻnggi bronza davrigacha davom etganligini koʻrishimiz mumkin. Ammo, Sarazm madaniyatining mintaqa madaniyatiga ta'siri deyarli bironta yodgorlikda yarq etib uchramaydi. Shunday boʻlsada ba'zi olimlar tadqiqotlari orqali Sarazm madaniyating mintaqa madaniyatiga ta'siri mavjudligini koʻrsatishga harakat qilishgan. Arxeolog N.A.Avanesova oʻz tadqiqot ishlarida Zarafshon vodiysida Sarazm tipidgi yodgorliklar boʻlganligini takidlab oʻtadi[3]. Olima Sarazm tipidagi yodgorliklar keyinchalik sovetlar tomonidan boʻsh yotgan yerlarning qishloq xoʻjalik ekinlarini koʻpaytirish maqsadida jadal oʻzlashtirish munosabati bilan yoʻqolib ketgan degan xulosani beradi. Yuqoridagi olimlarning fikrlaridan kelib chiqib bugungi kungacha Sarazm tipidagi yodgorliklar mintaqaning boshqa hududlardan topilmagan boʻlsada, sarazmliklar boshqa hududlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarini olib borgan, mintaqada oʻtroq dehqonchilik madaniyatining shakllanishiga oʻz ta'sirini koʻrsatgan deyish toʻgʻri boʻladi. Sarazmliklar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalar

kengaytirish orqali Sarazm dehqonchiligi asosida mintaqaning katta qismiga ham dehqonchilik madaniyati yoyila boshlaganligi tarixiy faktdir.

Yurtimizning mill.avv II ming yillikning oʻrtalariga oid boʻlgan Zarcha Xalifa[4], Sazagʻon[5] va Jom[6] mozorlaridan topilgan Sopolli madaniyatiga tegishli bronza buyumlar va kulolchilik mahsulotlari Sarazm IV davri buyumlari bilan bir xilligi Sarazmliklarning bizning hududlarimizda dehqonchilk va oʻtroq madaniyatlarni yoyishga katta hissa qoʻshganliklarini arxeologik manbalar asosida tasdiqlaydi. Mill.avv II ming yillik oʻrtalarida Sarazmda davom etgan hayot toʻxaydi. Chunki, mill. avv II ming yillikning ikkinchi yarmida bu hududga maʼdan konlarini egallash uchun chorvador qabilalar koʻchib kelib oʻrnashadilar. Natijada Sarazm madaniyati inqirozga uchraydi. Togʻ sanoati va metallurgiyadan keladigan moʻmay daromaddan mahrum boʻlgan Sarazmliklar, bu joyda qolishning iloji yoʻqligidan Sarazmni tark etdilar. Bu mintaqada endi shimoli-sharqdan kirib kelgan chorvador dasht qabilalari bu hududda oʻzlarining “Dashti Qazo” madaniyatini tashkil etladi. Aynan, Yuqori Zarafshon hududida dastlabki oʻtroq dehqonlar va koʻchmanchi chorvador qabilalari bir birlariga toʻqnash kelishadi va madaniyatlarning umumiylashuvi yuz bera boshlaydi. Mana shu ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar natijasida qadimgi dehqonchilik madaniyati chegarasi Oʻrta Osiyoning shimoli-sharqiy tomon kengayadi. Bu davrda mintaqaning janubiy hududlarida ham qizgʻin dehqonchilik madaniyati yoyilish jaroyoni boshlandi. Yaʼni birin-ketin Murgʻob vodiysida, Baqtriyada qadimgi sharq sivilizatsiyasiga xos oʻtroq dehqonchilik va shaharsozlik madaniyatining oʻchoqlari tarkib topa boshlaydi. Jumladan, janubiy Oʻzbekistonda sugʻorma dehqonchilik va yuksak darajada rivojlangan hunarmandchilik xoʻjaligning bronza davriga oid Sopolli madaniyati shakllanadi.

Sopollitepa aholisi Janubiy Oʻzbekiston hududining eng qadimgi dehqonlari edi. Bu yerdan topilgan juda boy va xilma-xil arxeologok matriallar tahlili Sopollitepa aholisi Janubiy Oʻzbekiston hududiga qoʻshni Turkmaniston va Afgʻonistondan dehqonchilik uchun qoʻlay yangi yerlar topish uchun kelib oʻrnashgan yana bir etnik guruxlardan biri ekanliklarini koʻrsatadi. Sopolli madaniyati birgina dehqonchilik manzilgohi boʻlibgina qolmay yodgorik bagʻrida chorvador ajdodlarimiz moddiy va maʼnaviy madaniyati izlarining topilishi bu madaniyat chorvodor ota-bobolarimizga ham tegishli ekanligini koʻrsatadi.

Sopolli madaniyati oʻzining Boʻston bosqichida gullab-yashnab turgan kezlarida, Baqtriya sarhadlariga Qadimgi Fargʻonaning Chust madaniyati tipidagi etnik guruhlar kirib keladilar[7]. Ularning moddiy madaniyat izlari ibtidoiy urugʻchilik jamoasining bronza bosqichidan ilk temir bosqichiga oʻtish davri madaniyati sifatida Qadimgi Baqtriya hududlari boʻylab keng tarqaladi.

**Tahlil va natijalar.** Diyorimizda dasht koʻchmanchilarining shimoli-sharqdan Movaraunnahrning markaziy va janubga qarab kirib kelishi va oʻtroq qabilalar bilan aralashishiga eʼtabor qaratadigan boʻlsak qadimgi yozma manbalar va arxeologik yodgorliklarning ilmiy tahliliga koʻra, oʻzbek xalqining ajdodlari faqat oʻtroq aholining qadimgi dehqonchilik madaniyatlari sohiblaridan iborat emas, ular bilan birgalikda oʻzbek xalqining shakllanishida chorvador etnik guruhlar ham faol qatnashgan.

Janubiy mintaqalarimiz hududlari doirasida bronza davriga tegishli chorvador qabilalarning yodgorliklari kelib chiqish tarixiy ildizlariga koʻra, uchta etnik guruhlarga borib taqaladi. Birinchisi, chorvador Beshkent va Vaxsh madaniyati etnik guruhlari boʻlsa, ikkinchisi, Sopolli dehqonchilik madaniyati etnik guruhlari, uchinchisi esa Yevroosiyo dashtlarining Andronovo madaniyati etnik guruhlaridir. Uch guruh orasida eng yirigi va keng koʻlamlisi Andronovo madaniyati vakillaridir. Ularning mintaqaga kirib kelish tarixiga nazar tashlaydigan boʻlsak, janubiy hududlaridan topilgan arxeologik ashyoviy dalillar tahliliga qaraganda, bu

zaminga Andronovo qabilalarining ilk bor kirib kelishi Sopolli madaniyatining Koʻzali bosqichida yuz beradi. Shimoliy Baqtriyada Jarqoʻton yodgorligidan topilgan Andronovo madaniyati sopol parchalarini uchratilishi, ularning qadimgi dehqonchilik jamoalari orasiga ilk bor kirib kelishidan dalolat beradi[8]. Huddi shu davrga tegishli sopollarning eng qadimgisi, masalan, Jarqoʻton ibodatxonasining muqaddas buyumlar saqlanadigan koridordan, Jarqoʻton qalʼa-qoʻrgʻonining Koʻzali madaniy qatlamida uchratilgan[9].

Sopolli madaniyatining qabrlarida shimol chorvadorlarining taqinchoq va turli xil bezak buyumlarining mitti nusxalari uchratilgan[10]. Ularning aksariyati, Moʻlali va Boʻston qabrlariga tegishlidir[11]. Bu holatlar mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmidan eʼtiboran, shimoliy dasht chorvador qabilalarining Oʻrta Osiyo hududlariga jadal kirib kelganligidan guvohlik beradi. Bu jarayonlar “Avesto” rivoyatlarida bayon qilingan Andronovo oriylarining mil.avv. II ming yillikning oʻrtalaridan janubga qilgan migratsiyalari bilan uzviy bogʻliq edi.

Akademik A.Asqarov takidlaganliklaridek “chorvador ajdodlarimizning aksariyati bronza davrida Avestoda tilga olingan tur urugʻ jamoalarini tashkil etgan. Turlar keng tarqalgan mintaqalar, ularning asosiy xoʻjalik xarakteridan kelib chiqib, Yevroosiyo dashtlari, Oʻrta Osiyoning togʻli va togʻ oldi mintaqalari va choʻl hududlari boʻlgan. Aslida turlarning avlodlari Ahamaniy podsholarining qoyatosh kitobalarida saklar nomi bilan, antik davr yunon mualliflarining asarlarida kimmeriylar, skiflar, savramatlar, massagetlar, sarmatlar kabi nomlar bilan, qadimgi Xitoy manbalarida xular, dilar, tieklar xunlar, yuechjilar kabi nomlar bilan bizgacha yetib kelgan”[12].

Oʻrta Osiyo turlarining avlodlari-saklarning bir qismi soʻnggi bronza va ilk temir davriga kelganda oʻtroqlashib, Sarazm va Sopolli madaniyatlari vorislari bilan qorishib, Qadimgi Sharq sivilizatsiyasiga xos ilk temir davri oʻtroq dehqonchilik madaniyatlarini tarkib topishida faol ishtiroq etganlar.

Soʻngi yillarda Xitoy yozma manbalarining kengroq va chuqur oʻrganilishi va ularning tanqidiy tahliliga koʻra, endilikda bronza davrida Yevroosiyo dashtlaridan kirib kelgan qabilalarning aksariyati prototurklar ekanligi aniqlandi. Respublika hududlarida joylashgan chorvador ajdodlarimizga tegishli yodgorliklarning keng oʻrganilishi natijasida xitoy manbalaridagi maʼlumotlar naqadar toʻgʻri ekanligini koʻrsatib berdi.

**Muhokama.** Arxeologik tadqiqotlardan maʼlumki, miloddan avvalgi II ming yillikning uchinchi choragi boshlarida Yevroosiyo dashtlarining chorvador qabilalari hozirgi Oʻzbekistonning janubi va Tojikistonning janubiy hududlariga ham kirib keladilar. Ularning izlari ilk bor 1941 yida Dushanbe shahrining sharqiy chegarasidan topilgan. Bu boshi sharqqa qaratilib, gʻujanak holatda yotgan odam skeleti boʻlib[13], uning katakombali qabridan charxsiz qoʻlda yasalgan 10 ta sopol idish topilgan[14].

M.M. Dyakonov kushonlar davri qabristonini oʻrganish chogʻida bronza davriga tegishli mozorga duch keladi[15]. Janubiy Tojikistonning togʻli Sangvor qishlogʻi yaqinidagi Tavil Daradan ponasimon, zoʻgʻotali bolta, yana bir shunday bolta 1957 yilda Varzob yaqinidagi Arakchin qishlogʻidan[16] topilgan. Bularning sanasi III ming yillikning oxiri va II ming yillikning boshlariga oid deb topilgan[17].

Chorvador dasht Andronovo jamoalariga tegishli bu topilmalar Janubiy-gʻarbiy Tojikiston hududlari bronza davri qabilalari tomonidan keng koʻlamda oʻzlashtirilgani haqida dalolat beruvchi topilmalar boʻlib, bunday topilmalar Janubiy Oʻzbekiston hududlarida ham uchrashini qayd etish mumkin. Masalan, Andronovo madaniyatiga tegishli sopol parchalari va yolgʻiz qabrlar Jarqoʻton yodgorligining beshinchi tepaligida, Jarqoʻtonning yuqori qatlamida, Boʻston VI qabristonida uchratilgan[18].

Sopolli madaniyatining Moʻlali bosqichida bu oʻzga etnik guruhlar janubiy Oʻzbekistonning mahalliy oʻtroq dehqonchilik madaniyati qishloqlari va chorvador qabilalari jamoalari ichigacha kirib boradilar. Bu holat Jarqoʻton, Teguzak, Kangurttut, Karimberdi, Ilk Tulxar, Ilk Aruktov, Tigrovaya Balka, Vaxsh, Makonimor, Beshkent I,II,III, Oykoʻl, Jarkoʻl qabristonlari misolida yaxshi oʻrganilgan.

Yuqorida bayon etilgan topilmalar tahlilidan xulosa qilish mumkinki, Janubiy Oʻzbekison hududidan topilgan chorvodor qabilalarga tegishli moddiy topilmalar Andronovo madaniyatining Fyodorov bosqichiga tegishli ekanligidan guvohlik beradi.

Shunday qilib, Oʻrta Osiyoning tarixiy-madaniy mintaqalari hududlariga bronza va ilk temir davrida Yevroosiyo dashtlaridan kirib kelgan turkiy tilli chorvador qabilalarga tegishli yodgorliklar 230 dan ortiq joylarda topilgan. Ular kirib bormagan va oʻz harbiy-siyosiy hukmronligini oʻrnatmagan joylar qolmagan. Ular dastlab, mahalliy tub joyli oʻtroq aholi ekin maydonlaridan chetroqqa kelib joylashadilar. Dastlab, bu ikki xoʻjalik sohiblari oʻrtasida oʻzaro iqtisodiy aloqalar oʻrnatiladi. Bu iqtisodiy-xoʻjalik aloqalari sekin-asta etnik aloqalar tusini ola boshlaydi. Yuqorida taʼkidlaganimizdek, hozirgi Oʻzbekiston hududlari va tevarak-atrof hududlarda ungacha qadimgi eroniy tillarning sharqiy lahjalarida soʻzlovchi oʻtroq dehqon va chorvador saklar yashar edilar. Ulardan qolgan arxeologik yodgorliklar Oʻrta Osiyo boʻylab keng tarqalgan. Bu ikki etnik qatlamning bronza davridan boshlab bir hudud doirasida, bir-birlari bilan iqtisodiy va etnomadaniy aloqalar rivoji asosida yashashi va sekin-asta oʻzaro etnik yaqinlashishlarining boshlanishi aynan bronza davridan boshlab yuz berdi.

**Xulosa.** Xullas, miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida Oʻrta Osiyoning barcha togʻ oldi tumanlari, choʻl va dashtlari chorvador qabilalari bilan qoplangan edi. Ming yillikning oxiriga kelgunga qadar ular oʻz chorva mollarini haydab to qadimgi dehqon jamoalari muhitiga qadar kirib bordilar. Bu holat Oʻrta Osiyoda etnik jarayonlarning faollashuviga ijobiy taʼsir koʻrsatdi. Oqibatda ibtidoiy jamoa ildiziga zil ketdi. Ikki xoʻjalikning Oʻrta Osiyo hududida toʻqnashishi mill.avv II ming yillik oxiri va I ming yillik boshlarida bu hududda yuz bergan migratsiya va etnik jarayonlar hozirgi zamon oʻzbek va voha tojiklarning dastlabki etnik qatlamining shakllanishida muhim roʻl oʻynadi.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Исаков А. Саразм. К вопросу становления раннеземледьческой культуриы Зарафшанской долины. – Душанбе, 1991.С.5
2. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи . – Т.: Ўзбекистон,2015. – Б.138.
3. Аванесова Н.А. Межкультурные взаимодейтвия степного населения Евразии и урбанизированных земледельцев Средней Азии. Тез. Докл. Цивилизатsiя Централной Азии: земледельцы и скотоводы, традиции и современность . – Самарканд,2002.С.17.
4. Бобомуллоев С.Б. Верховья Зарафшана во II тыс. до н. э. Душанбе,1998.
5. Аванесова Н.А. Новые матреалы эпохи бронзы Зарафшанской долины. Археологичесие исследования в Узбекистан- 2001год.- Самарканд. С.20-21.
6. Avanesova N, Sajdullayev S, Yorkulov A. Gzam-ein neuer bronzezeitlicher Fundort in der Sogdiana. Archaologische mittilungen aus Iran und Turan. – Berlin, 2001.p.63-72.
7. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи . – Т.: Ўзбекистон, 2015. – Б.182.
8. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья. Москва. 1977. с. 145.
9. Аскаров А. Степной компонент в оседлых коплексах Бактрии и вопросы его интерпретации. «Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций. Алма-

Ата, 1989. с. 160–166; Аванесова Н.А. Проявление степных традиций в Сапаллинской культуре. «Цивилизации и культуры Центральной Азии в единстве и многообразии». Т.: 2010. с. 110-111.
10. Аскаров А., Абдуллаев Б. Джаркутан. Т.: 1983. табл. XLV, 17.
11. Аванесова Н.А. Указ. Работа. Рис. 10–3.
12. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи . – Т.: Ўзбекистон, 2015. – Б.203.
13. Смоличев П.И. Погребения со скорченными костяками в районе города Сталинабада. ИТФ, АН СССР №
14. XV, 1949.с.75-82.
15. Тереножкин А.И. Археологические находки в Таджикистане. // КСИИМК, Вып. 20, 1948.с. 76.
16. Дьяконов М.М. Работы Кафирниганского отряда. // МИА, 15, 1950, с. 157–162.
17. Литвинский Б.А. О топорах эпохи бронзы....с. 59; Кузьмина Е.Е. Металлические изделия энеолита и бронзового века..... с. 8.
18. Кузьмина Е.Е. Металлические изделия энеолита и бронзового века..... с. 8.
19. Аванесова Н.А. Проявление степных традиций в Сапаллинской культуре. «Цивилизации и культуры Центральной Азии в единстве и многообразии». Т.: 2010. с 6,7, 116, 117.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I12.1Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/1 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).